



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



DALALARNI LAZER NIVILER USKUNASIDA TEKISLASHNI YANDA TAKOMILLASHTIRISH.

Sapayeva Saodatjon Satimbay qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti 1-kurs magistranti

e-mail: saoadatjonsapayeva@gmail.com

Bugungi kunda dunyo aholisining keskin o'sishi, o'z navbatida qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan kundalik ehtiyojning yanada ortishiga olib kelmoqda. Bu esa dunyoning barcha mamlakatlari singari O'zbekistonda ham mavjud yer maydonlari va suv resurslaridan foydalanib, qishloq xo'jaligi ekinlaridan yanada ko'proq mahsulot olish kerakligini taqozo etadi. Qo'shimcha suv zahiralarining yo'qligi sababli, qishloq xo'jalik ekin maydonlarini kengaytirishning imkoniy yo'qligini inobatga olgan holda, mavjud suv resurslaridan yanada samarali foydalanishimiz kerak bo'ladi. Hozirgi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida sug'oriladigan maydonlar mahsuldorligini oshirishning eng zamonaviy, innovatsion texnologik usullaridan biri qishloq xo'jaligida yerlarni lazer nivelerida tekislashni ommalashtirishdir.

Sug'orma dehqonchilikda dala maydoni yuzasining tekisligi – yer, suv, o'g'it va energiya resurslaridan samarali foydalanish, ekinlardan yuqori hosil olish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Yerlarni lazer niveleri yordamida tekislash deganda dala maydoni yuzasidagi eng past va baland joylar farqi ± 3 sm. dan oshmaydigan darajadagi maxsus jihozli, lazer nivelerli qurilmalar yordamida tekislash usuli tushuniladi. Shuning uchun ushbu texnologiyani chuqur o'rganish, sinovdan o'tkazish, rivojlantirish va amaliyatga kengroq tadbiq qilish talab qilinadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, "Yerlarni lazer nivelerida tekislash texnologiyasi" fermer xo'jaliklari dala maydonlarida amaliy tajribadan o'tdi. Bu borada, 2015 yil 29 dekabrda "2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2460-soni Prezident Qarori ham qabul qilingan. Ushbu qarorning 5-ilovasi 10-bandiga ko'ra, 2020 yilga qadar respublikamizda 637 ming hektar sug'oriladigan yer maydonlari lazer niveleri yordamida tekislanishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

Demak, endi bu texnologiyani faqat dehqonchilikning amaliyot dasturiga aylantirishimiz qoldi xolos. Yerlarni lazer nivelerida tekislash – dala maydon yuzasidagi eng past va baland joylar farqi 1+3 sm dan oshmaydigan darajadagi maxsus lazer jihozli qurilmalarda tekislash usuli tushuniladi. Aslida, lazer niveleridagi lazer nurlarini qabul qilgich uskunasida asosan ikkita rangli chiroq aks etadi, birinchisi, qizil rangli – yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga yo'naltirilgan strelka belgisini ifodalovchi va ikkinchisi, yashil rangli, to'g'ri chiziq ko'rinishdagi belgini ifodalovchi chiroqlar. Yerlarni lazer nivelerida tekislash davomida qizil chiroqlar yonib tursa, demak dalada hali ham 7 ± 8 sm atrofida past va baland joylar bor suv quyishga ruxsat etilmaydi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Agarda, tekislash davomida dalaning barcha joylarida yashil chiroq yonib yursa, bu dala maydon 1 ± 3 sm aniq qilib tekislandi, bemalol suv quyishga ruxsat etiladi, degan ma’noni anglatadi. Lazer nivelirida tekislangan dala maydonlarda 6–8 sm suvni dala maydon yuzasi bo‘ylab bemalol bir xilda taqsimlash mumkin, bu gektariga $600\text{--}800 \text{ m}^3$ suvning sarf bo‘lishiga olib keladi. Dala yuzasi $1\pm3\text{sm}$ bo‘lgan maydonlarga suv quyilganda dalaning eng baland joylari ham suv ostida bilinmasdan qolib ketadi.

Barqaror qishloq xo‘jaligi kelajak avlod uchun suv va energiya kabi tabiiy resurslarni tejashni o‘zida mujassam etgan atrof-muhitni muhofaza qilishni nazarda tutadi. Iqlim o‘zgarishi suv tanqisligiga jiddiy ta’sir qiladi. Sug‘orish suvini tejash maqsadida 2004-yildan beri Vietnamda Xalqaro guruch tadqiqot instituti va Nong Lam universiteti qishloq xo‘jaligi energiyasi va mashinalari markazi o‘rtasidagi hamkorlikda suv va energiyani tejash uchun aniq qishloq xo‘jaligi texnologiyasi sifatida lazer bilan boshqariladigan dala tekislash texnologiyasi qo‘llanilmoqda. U Vietnamning bir nechta viloyatlarida 2000 gektardan ortiq maydonda lazerli tekislashning afzalliklarini namoyish qilish uchun targ‘ib qilingan.

Natijalar: tekislangan dalalarda tekislanmagan dalalarga nisbatan sug‘orish suvi 30-50% ga iqtisod qilindi, bu sug‘orish uchun suv chiqarishdan 62% energiya tejashga to‘g‘ri keladi. Lazerli tekislashning boshqa afzalliklari quydagilardan iborat: urug‘larni tejash (30%), o‘g‘itlarni tejash, begona o‘tlarga qarshi kurashda mehnatni tejash (70%), pestitsidlardan foydalanishni kamaytirish va boshqalar, bularning barchasi energiyani tejash imkonini beradi.

Mabodo, ekinlar 4 marta sug‘oriladigan bo‘lsa, 1 gektar maydonga $2800\text{--}3200 \text{ m}^3$ suv surf bo‘ladi. Fermerning 50 gektar ekin maydoniga ketadigan umumiyl suvning miqdori $140000\text{--}160000 \text{ m}^3$ ni tashkil qiladi. Prezidentimizning 2018 yil 4 yanvardagi “Qishloq xo‘jaligining texnik jihozlanish darajasini yanada oshirish borasidagi qo‘srimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3459 sonli Qarori bo‘yicha Agrobankning 10 yilga 5 % li kredit tizimidan foydalanish mumkin. Hisob-kitoblarni umumlashtirgan holda xulosa qilinadigan bo‘lsa, yerlarni lazer nivelirida tekislash texnologiyasiga investisiya kiritish iqtisodiy jihatdan rentabelli, agar uskuna bahosi 5000 dan 11000 AQSh dollari atrofida bo‘lsa, 3 yilda bemalol qaytarib olish mumkin. Uskuna bahosi 5000 AQSh bo‘lsa har qanday kredit stavkasi 3 yil davomida, kredit qiymatini qoplash bilan birga foya ham olib keladi. Uskuna bahosi 21000 AQSh dollari bo‘lsa, har qanday 5 % yoki 19 % stavkada 3 yil davomida kredit qiymatini qoplash juda qiyin. Shuning uchun, bunday narxdagi uskunalarning xarajatini uzoq muddatli kredit olish orqaligina qoplash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Innovatsiyalar sari shahdam qadamlar: Suvni tejash iqtisodiy tejamkorlik”. Xorazm Ma’mun akademiya axborotnomasi, 2011 yil 2-son, 71-78-bet;
2. Karimov.I.A. “2016-2020 yillarda qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2460 2015 yil 29 dekabr





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



3. “Lazer niveliri yordamida yerlarni tekislash: tuproqni ko‘chirish emas, balki suvni tejashdir”. ZEF/UNESCO loyihasining Xorazm viloyatida yer va suv resurslaridan barqaror foydalanish bo‘yicha ilmiy ishlanmasi. ZUR №1. 2008;
4. Mirziyayev SH.M. “Qishloq xo‘jaligining texnik jihozlanish darajasini yanada oshirish borasidagi qo‘srimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3459 2018 yil 4 yanva
5. Hieu-hien, P., & Nghi, N. T. (2024). Saving irrigation water and energy with laser leveling equipment for environment protection and sustainable agriculture Saving irrigation water and energy with laser leveling equipment for environment protection and sustainable agriculture 1. May.

